

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

COOPERATIVE ACTIVITIES OF THE PROSECUTOR'S OFFICES IN THE IMPLEMENTATION OF OFFENSES AMONG YOUNG PEOPLE

Urakov Djakhongir Rajabovich,

Independent researcher at
Tashkent State University of Law.

<http://www.orcid.org/0000-0003-0078-2463>

E-mail: udjahongir@gmail.com

Abstract. This article analyzes the role of the prosecutor's office in the prevention of offenses among young people, the theoretical and practical aspects of their interaction with other state bodies, law enforcement agencies, neighborhood, educational institutions, and public organizations. Also highlighted are the internal and external cooperation of the prosecutor's office, its role in protecting the rights, freedoms, and interests of youth, existing experience and conceptual approaches aimed at early crime prevention. The author substantiates the need to improve the regulatory framework in this area, strengthen cooperation mechanisms, and introduce new information systems. At the end of the article, the importance of harmonizing the activities of the prosecutor's office with the tasks defined in the "Development Strategy" is revealed.

Keywords: prosecutor's office, youth, crime prevention, interdepartmental cooperation, internal cooperation, external cooperation, law enforcement agencies, preventive measures, crime prevention, information systems, legal culture, state policy, Development Strategy.

PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI

Urakov Djaxongir Rajabovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishdagi o'rni, ular tomonidan boshqa davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, mahalla, ta'lim muassasalari hamda jamoat tashkilotlari bilan olib borilayotgan o'zaro hamkorlikning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etilgan. Shuningdek, prokuratura organlarining ichki va tashqi hamkorligi, yoshlar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishdagi roli, jinoyatchilikni erta oldini olishga qaratilgan mavjud tajriba va konseptual yondashuvlar yoritilgan. Muallif tomonidan ushbu yo'nalishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish, yangi axborot tizimlarini joriy etish zarurati asoslab berilgan. Maqola yakunida prokuratura organlari faoliyatini "Taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalar bilan uyg'unlashtirishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: prokuratura, yoshlar, huquqbuzarliklar profilaktikasi, idoralararo hamkorlik, ichki hamkorlik, tashqi hamkorlik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, profilaktika chora-tadbirlari, jinoyatchilikning oldini olish, axborot tizimlari, huquqiy madaniyat, davlat siyosati, Taraqqiyot strategiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N51>

Mamlakatimiz kelajagi – yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, unga qarshi kurash, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish davlat huquqiy siyosatining muhim

yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarlik turlarining xilma-xilligi, uni aniqlash, fosh etish, unga qarshi kurash barcha davlat organlarining, dastavval maxsus vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etadi.

Prokuratura organlarining boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha birgalikdagi hamkorlik faoliyati ularga berilgan vakolatlar doirasida qonun ustuvorligini ta'minlashga, qonuniylikni mustahkamlashga, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ular o'rtasida jinoyatchilikni barvaqt oldini olishga, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

L.P.Shersten fikricha, "Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalardan biri, albatta, yoshlar o'rtasida jinoyatlar ko'payishini kamaytirish, ularning oldini olish samaradorligini oshirish yo'llarini izlashdan iboratdir" [1].

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, jinoyatni aniqlash, uning negizini topish, huquqbuzarliklarning oldini olish, uni jilovlash mutasaddilarning eng asosiy vazifasidir. Jinoyatchiga jazo berishdan ko'ra, uning oldini olish afzal. Bu yo'nalishda hamkorlikni kuchaytirish lozim. Jinoyatchilikka qarshi kurash nafaqat huquq-tartibot organlarining, balki barchamizning faoliyatimiz mezonini bo'lishi kerak[2].

Shuni qayd etish lozimki, birgina prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini amalga oshirishi ular oldiga qo'yilgan vazifalardan ko'zlangan maqsadga erishish imkonini bermaydi. Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi puxta o'ylangan hamkorlik rejalari asosida ishtirokchilarning funksiyalarini aniq belgilagan holda tashkillashtiriladi. Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslarning samarali hamkorlik faoliyati yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishini erta oldini olishga, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishga, muammolarini tezkor hal etishga, buzilgan huquqlarini tiklashga yordam beradi.

O.S.Sultonovning ma'lum qilishicha, "Prokuror nazorati amaliyoti tahlili dastlabki tergov organlarining profilaktika faoliyati boshqa organlar bilan o'zaro ta'siri va o'zaro xabardorligi, birgalikdagi faoliyati mexanizmi hanuzgacha yetarli darajada tartibga solinmagan bo'lib, bu esa jinoyatlar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlar majmuasining o'z vaqtida va maqsadga muvofiqligini ta'minlashga imkon bermaydi" [3].

Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda o'rganiladigan va tahlil qilinadigan asosiy masalalardan biri yoshlar tomonidan so'nggi yillarda sodir etilgan huquqbuzarliklar soni va turi hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, prokuratura organlari tomonidan yangi axborot tizimlarini yaratish, mavjud axborot tizimlarini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rilishiga qaramasdan ayrim huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda idora va tashkilotlarning o'zaro hamkorlik faoliyatida muammolar ko'zga tashlanmoqda. Bu esa, yoshlarning buzilgan huquqlarini o'z vaqtida himoya qilishga, murojaatlariga tezkor munosabat bildirishga, muammolari yechimi bo'yicha hamkorlikda ishlarni tashkil etishga ta'sir etadi.

Interaction (o'zaro hamkorlik) – ishda eng yaxshi natijalarga erishish uchun boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatish qobiliyati [4]. hisoblanadi. Shubhasiz, zamonaviy

huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida ma'lumot va materiallar tahlili, hamkorlik ishi, texnologiya muhim rol o'ynaydi [5].

P.P.Fantrov va V.M.Shinkaruklar huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi prokuratura faoliyatini huquqiy tartibga solish muammolaridan biri sifatida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar tizimida subyektlarning muvofiqlashtiruvchisi sifatida prokuratura organlarining o'zaro hamkorligi mexanizmini tartibga soluvchi qonunchilik normalarining nomukammalligini ko'rsatadi. Shuningdek, prokuratura organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini tizimlashtirish profilaktika chora-tadbirlarini amaliy qo'llash muammolarini hal etishga va umuman prokuratura faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [6].

P.P.Fantrov, M.V.Bobovkin, S.A.Medentsovlarning fikriga ko'ra, "Voyaga etmaganlar o'rtasida ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha muayyan vakolatlarni amalga oshirishda prokurorlar faqat qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlari doirasida harakat qilishlari shart. Voyaga yetmaganlar o'rtasida ekstremistik jinoyatlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha prokuratura faoliyatidagi asosiy muammolar qatoriga quyidagilar kiradi: rasmiyatchilik; profilaktika ishlariga individual yondashuvning yo'qligi; idoralararo hamkorlik muammolari.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlarga ta'sir ko'rsatishning yangi usullarini joriy etish, voyaga yetmaganlar o'rtasida ekstremistik jinoyatlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha barcha subyektlarning o'zaro hamkorligi mexanizmini takomillashtirish, prokurorlarni voyaga yetmaganlar o'rtasida ekstremistik jinoyatlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha faoliyatga va boshqa chora-tadbirlarga ixtisoslashtirish hamda nazorat qilinadigan va boshqa sohadagi profilaktika subyektlari faoliyati ustidan rasmiy emas, puxta nazoratni amalga oshirish orqali hal etilishi mumkin" [7].

O'zaro hamkorlik prokuratura organlarida ishni tashkil etishning mohiyati va mazmunini aks ettiruvchi asosiy masalalardan biri ekanligini hisobga olsak, u umumiy maqsad va vazifalarga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq subyektlarning kelishilgan faoliyatini anglatishini yodda tutish kerak. Bunday holda, o'zaro ta'sir o'zaro aloqalar, ma'lumotlar almashinuvi, sa'y-harakatlarni birlashtirish, hamkorlik subyektlarining bir-biriga ta'siri, o'zaro aloqada bo'lgan bir tomonning o'z muammolarini ikkinchi tomonning katta imkoniyatlari va salohiyati hisobiga hal qilishda ifodalanadi [8].

Sh.Z. Narziyev, A.O'.Isomiddinovlar huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida o'zaro hamkorlikning muhim jihatlarini tahlil qilib, quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar bilan hamkorlik qilish, huquqiy tartibni mustahkamlash va jamoatchilik xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Hamkorlik — bu maqsadlarni amalga oshirish uchun turli shaxslar, tashkilotlar yoki guruhlar o'rtasida o'zaro yordam, resurslarni birlashtirish va tajriba almashish jarayonidir. Huquqbuzarlik profilaktikasi, jamiyatdagi huquqni buzilishlarning oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Bu jarayonda bir nechta davlat organlari va tashkilotlar o'zaro hamkorlik qilishadi. Huquqbuzarlik profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning o'zaro hamkorligi – bu jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat va nodavlat muassasalari o'rtasidagi samarali va muvofiqlashtirilgan faoliyatdir" [9].

Shuni ta’kidlash lozimki, prokuratura organlari yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini ichki va tashqi hamkorlik doirasida amalga oshiradi. Prokuratura organlarining ichki hamkorligi O’zbekiston Respublikasining “Prokuratura to’g’risida”gi Qonuni 10-moddasida mustahkamlangan prokuratura organlari tizimida nazarda tutilgan prokuratura organlarining o’zaro hamkorligida namoyon bo’ladi. Biroq, prokuratura organlari tomonidan yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan bog’liq ishlarni tashkil etish va o’zaro ichki hamkorlikni amalga oshirishda yuqori turuvchi tegishli prokurorga hamda O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo’ysunuv va ular oldida hisobdorlik inobatga olinadi.

Darhaqiqat, prokuratura organlarining yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda tashqi o’zaro hamkorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi o’zaro hamkorlik yoshlarning muammolarini aniqlash, o’rganish, hal qilish hamda ularga huquqiy va boshqa yo’nalishlarda amaliy ko’mak, yordam, maslahat berish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun mavjud kuch va vositalardan, imkoniyatlardan samarali foydalanishga qaratilgan yagona maqsadga yo’naltirilgan hamkorlik munosabatlaridir. Prokuratura organlari yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini amalga oshirishda davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sudlar, ommaviy axborot vositalari, jamoat va boshqa tashkilotlar bilan o’zaro hamkorlik qiladi.

O.M. Madaliyevning ta’kidlashicha, “Jinoyatchilikka qarshi kurash, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, surishtiruv o’tkazish, dastlabki tergovda qonunlarning bajarilishi ustidan prokuror nazoratini ta’minlash jarayonida prokuraturaning huquqni muhofaza qiluvchi boshqa idoralar bilan hamkorligi natijasida jinoyatchilik ildiziga bolta uriladi va jamiyatda fuqaro va insonlarning tinch-xotirjam yashab, ishlashlari uchun zamin yaratiladi, jinoyatchilik dinamikasida barqarorlik vujudga keladi” [10].

Darhaqiqat, prokuratura organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan tashqari, mahalla fuqarolar yig’ini, maktab, ota-onalar, psixolog mutaxassislar bilan hamkorlikda profilaktik chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishini barvaqt oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, fikrimizcha, prokuratura organlarining yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasida hamkorlik faoliyati deganda, prokuratura organlarining tegishli davlat va xo’jalik boshqaruvi organlari, idoralar, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar bilan yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, ularning sifatli ta’lim-tarbiya olishi, vatanparvar, qonunga itoatkor, huquqbuzarliklarga toqatsiz barkamol avlod sifatida shakllanishida o’zaro samarali hamkorligi tushuniladi.

Jinoyatlarni aniqlash, oldini olish, ularga chek qo’yish, fosh etish va tergov qilish jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va tergov apparatlarining o’zaro hamkorligi mavjud obyektiv omillardan kelib chiqadigan real zaruratga aylanib bormoqda.

Prokuratura organlarining yoshlar o’rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo’yicha hamkorlik faoliyati tahlillaridan kelib chiqib shuni alohida qayd etish lozimki, O’zbekiston Respublikasining “Prokuratura to’g’risida”gi Qonunida O’zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi O’zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq chet el davlatlarining tegishli organlari bilan prokuror nazorati, jinoyatchilikka qarshi kurash

sohasida hamda boshqa masalalar bo'yicha hamkorlik qilishiga oid norma mustahkamlangan bo'lib, mazkur Qonunda prokuratura organlarining davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar bilan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida va boshqa yo'nalishlarda o'zaro hamkorligi masalasi belgilanmagan.

Yuqorida fikr-mulohazalari o'rganilgan ayrim huquqshunos olimlarning qarashlari, xorijiy davlatlar qonunchiligi tahliliga tayangan holda O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunini **"Prokuratura organlarining fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha o'zaro hamkorligi"** deb nomlangan yangi 8¹-modda bilan to'ldirish lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish sohasidagi idoralararo va xalqaro hamkorligining yanada ta'sirchan tizimini yaratish mazkur faoliyatni yangi bosqichga olib chiqishga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni, shuningdek, "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Шерстень Л.П. Профилактика правонарушений среди детей и подростков. <https://www.borisovgymnasia3.by/component/content/article/21-spss/346-profilaktika-pravonarushenij-sredi-detej-i-podrostkov>
2. Xo'jaeva D. Yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga barchamiz birdek mas'ulmiz. <https://uza.uz/ru/posts/yoshlar-ortasida-zhinoyatchilik-va-huquqbuzarliklarning-oldini-olishga-barchamiz-birdek-masulmiz-514147?q=%2Fposts%2Fyoshlar-ortasida-zhinoyatchilik-va-huquqbuzarliklarning-oldini-olishga-barchamiz-birdek-masulmiz-514147>
3. Sultonov O.S. Dastlabki tergov organlarining profilaktik faoliyatini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: 2023. -B.22.
4. Djaxanov S.S. Prokuratura organlari xodimlari kompetensiyalari va faoliyat samaradorligini baholash tizimi: milliy va xorijiy tajriba. Magistrlik dissertatsiya ishi. - Toshkent, 2022. -B.22.
5. Modern Crime Prevention Pamphlet March 2016. https://assets.publishing.service.gov.uk/media/5a7f41bfe5274a2e8ab4b139/6.1770_Modern_Crime_Prevention_Pamphlet_final_WEB_version.pdf
6. Fantrov P.P., Shinkaruk V.M. Prosecution Authorities in the System of Subjects of Crime Prevention //Legal Concept= Pravovaya paradigma. – 2022. – T. 21. – №. 2. – C. 28-34.
7. Fantrov P.P., Bobovkin M.V., Medentsov S.A. Improving the Activities of the Prosecutor's Office for Preventing Crimes of Extremism Among Minors //Legal Concept= Pravovaya paradigma. – 2021. – T. 20. – №. 2.
8. Актуальные проблемы прокурорской деятельности: курс лекций: Вып. 2 / под ред. О.С. Капинус; [К.И. Амирбеков и др.; рук. авт. кол. А.Ю. Винокуров]; Акад. Ген. прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2016. -C.36.
9. Narziev Sh.Z, Isomiddinov A.O'. Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning o'zaro hamkorligi va asosiy yo'nalishlari. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY International

- scientific-online conference. –B.71. <https://www.inlibrary.uz/index.php/sspme/article/view/53357>
10. Madaliyev O.M. Prokuror nazorati. (Maxsus qism). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: "ILM ZIYO", 2012. –B. 75.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).